

LABIRINTLI TUPROQQA'LA

Tumaris Kalmuratova

Jazira Nurmaganbetova

Juldız Saparbaeva

Berdaq nomidagi QQDU «Arxeologiya» yo'nalashi talabalari

Annotaciya: *Qoraqalpog'iston hududidagi qadimgi qa'lalardan hisoblangan odibaning qadimgi tarixi haqidagi ma'lumotlar keltiriladi. Milodiy II-IV asrlarda Qadimiy Xorazm davlati poytaxti Tuproqqa'ladan qadimgi davrga tegishli arxeologik topilmalarning tarixi haqida tahlil qilingan. Xususan qa'laning joylashishi, tuzilishi, shahar aholisining iqtisodiy va ijtimoiy hayoti har tomonlama chuqur tahlil etilgan. Mazkur maqola ularning tarixiy davrlardagi rivoji va tanazzuli masalalariga bag'ishlangan.*

Tayansh so'zlar: *Xorazm poytaxti, janubiy Orol, Kushan podsholigi, labirint, «rejalovchi guruh», Amudaryo, Shagra (Sultonvays) tog'i.*

O'lkamiz ko'p gina madeniy meros ob'ektlarini o'zida jamlaydi. Ular qadimiy tosh asridan hozirgi kunga qadar bo'lgan davrdagi xalqlarning o'tmishi, urf-odatlari, ma'naviy va ijtimoiy-iqtisodiy madaniyati, tili, diniy ishonchlari va o'sha davrda yashagan odamlarning turmush tarzi haqidagi kerakli ma'lumotlarni o'zida jamlaydi. Qoraqalpoq aholisining be'takror tabiatni, qadimgi tarixi va boy madaniyati haqida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: «Qoraqalpoq o'lkasi o'zining betakrorligi, takrorlanmas madaniyati bilan barchamizni lol qoldirib keladi. Ayniqsa, ajdodlarimizdan qolgan bebafo folklorlik badiiy asarlari diqqatga loyiq. O'z yurti, o'z o'lkasida ajdodlarining merosiga har doim sodiqlik ruhida yashayotgan mard va zahmatkash qoraqalpoq yurtining mustahkam irodasiga tan berib, bunday xalq bilan har qanday faxrlansang arziydi» - deb aytib o'tadi [1;206-210-212].

Quyida biz ushbu yirik madaniy markazlarning biri Qadimiy Xorazm davlatining poytaxti Tuproqqala haqida so'z etamiz.

Tuproqqa'la Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqa'la tumanida Beruniy shahrinan 50 km uzoqlikda joylashgan. Uning tuzilishi meridian bo'yicha to'g'ri to'rburchakdan (500×350 metr) iborat bo'lib, ikki mudofaa devori bilan o'ralgan. Uning tashqi tomonidan xandak qozilgan. Bu xandakdan qa'laga uning janub devori o'rtasidagi osma ko'prik orqali kirilgan. Tuproqqa'la miloddan avvalgi II-IV asrlarda Xorazm davlatining poytaxti bo'lgan[2;77]. Tuproqqa'la va uning ichidagi podsho saroyi Xorazmning Kushon podsholigi davriga tegishli madaniyatni ancha toliq sifatlaydi. Anig'iroq aytganda, bu

Kushon davlatining keyingi davriga mos keladi. Poytaxt shahar belgisi sifatida quyidagilar qaralgan: boshqarish hukimdoni saroyi, muqaddas ibodatxona, me'moriy qurilish va yozuv. Tuproqqa'lada poytaxtga tegishli belgilarning barchasi bo'lgan[2;77]. Qa'lanning umumiy maydoni 17,5 hektar bo'lib, o'sha vaqtagi harbiy arxitektura yutuqlari namunasida qurilgan shahar darvozasidan kirish uning tuzilishini bilmagan odamlar uchun qiyinchilikni tug'dirgan. Sababi, darvoza oldidagi labirintli, ya'ni, tuyuq qo'ltingchalarga ega qo'shimcha qurilish o'z nabatida dushman xavfi tug'ilganda mudofaa bo'lib xizmat qilgan[3;53].

Janubiy devor o'rtasida devor joylashgan bo'lib, u juda murakkab qurilishga ega. Shimoli-g'arbiy burchagida ark joylashgan, uning poydevori paxsa bloklaridan iborat bo'lib, balandligi 14 metr. Darvoza orqali to'g'ri ko'cha o'tgan bo'lib, qa'lanning ichki qismini ikkiga ajiratgan. 1946 yildan boshlab, 30 yildan ortig'iroq davom etgan arxeologik tadqiqotlar Tuproqqa'ladan ilm-fanga hali noma'lum yangi memoriy qurilishlar, haykallar, tasviriy sanaat, badiiy asarlar va arxiv topildi. Shu jumladan, 21 mingdan oshiq kulol idishlar bilan ularning bo'laklari topildi. Ularning orasida don va suv saqlash uchun ishlangan juda katta humdonlar bilan birga bayram dasturxonlarini bezash uchun juda nozik etib tayyorlangan sharop bloklari topib o'rganilgan. Bundan tashqari Tuproqqa'ladan topilgan kumush va mis zarbxonalar qa'lada pul aylanishi bo'lganligini ko'rsatib qoymasdan, ularning ko'pligini ko'rsatadi. Tuproqqa'ladan qadimgi Xorazm podshosi Arsamuqning I va uning ayoli rasmi bor tangalar topilgan. Bu tangalar miloddan avvalgi I asrda qadimiylar Xorazmda keng tarqalgan[4;710-711].

Miloddan avvalgi IV-V asrlarga kelib, iqtisodiy madaniy turmush tarzida tanazzulga yuz buradi. Qa'lanning faqatgina ichki bo'lmida turmush davom etadi. Milodiy VI asr o'rtalariga kelib qa'lanning ichki bo'limida qurilish ishlari olib boriladi. Milodiy VI asr o'rtalarida turmush tarzi qayta jonlanishi bilan, X-XIII asrlarda mustahkam uy-joy va inshotlar qurilgan[5;46-47].

Antik davr yozma manbalarga ko'ra, shahar qurilishiga katta e'tibor berilib, u maxsus «rejalovchi guruh» tomonidan olib borilgan[2;51]. U yerda eng katta muammolar safiga o'sha qurilish olib borilayotgan muhitning tozaligiga muhim e'tibor berilgan. Buning uchun oddiy usul qo'llanilgan: yerda, suvda, o'simlik dunyosinda kasallik bor yoki yo'qligi o'sha yerda yashayotgan hayvon ovlanib, uning ichki qurilishlari (yurak, jigar) tekshirilgan[3;53].

Yuqorida aytilgan muhit toza bo'lgan holatda shahar qurilishiga ruxsat berilgan. Tuproqqa'la Janubiy Orol bo'yidagi barcha shaharlarning ushbu tartibni hisobga olgan holda qurilganligi bundan ikki ming yil muqaddam bizning hududimiz ekologik jihatdan juda toza bo'lganligini ko'rsatadi. Shuning

bilan birga shahar qurilishi uchun o‘rin tanlashda maydoning qo‘yilganligi, yerning tuzilishi, uning qurilish materiallariga yaqinligi va boshqa vaziyatlar hisobga olingan. Hozirgi yondashuvdan olib qaralganda Tuproqqa’la uchun o‘rin juda yaxshi tanlangan. Unga Tuproqqa’laning o‘lkamizning ko‘p shaharlariga ziyon yetkazgan asov Amudaryodan olisda joylashishi, shuning bilan birga Shagra (Sultonvays) tog‘ tizmalariga yaqin, karvon yo‘l bo‘yida joylashishi yaqqol misol bo‘la oladi.

Tuproqqa’lada dastlab 1938-1950 yillarda professor S.P.Tolstov bosshiligida tadqiqot ishlari olib borilgan. Vaqt o‘tib bu yerda professor Yuriy Oleksandrovich Rapoport va Elena Evdakimovna Neraziklar tadqiqot ishlarini olib boradi. Ularning tadqiqot natijalari Moskvada «Xorazm arxeologik - etnografik ekspeditsiyasining tadqiqotlari» toplamlarida nashr qilindi. Ularning birinchi 12-tomda «Tuproqqa’la shahri» nomida 1981 yili, ikkinchisi bo‘lsa 14-tomda «Tuproqqa’la» nomida 1984 yili chop etildi. Bu bo‘yicha Respublikamiz olimlari ham bir necha badiiy asarlar yozgan. Shuning ichida G‘ayratdin Xojaniyazov va Jolmirza Hakiminiyazovlar 2004 yili Nukusda nashr qilingan «Qoraqalpog‘istonning yetti ajoyib yodgorligi» kitobida Tuproqqa’la yodgorligiga chuqur tahlil qilingan.

Xulosa qilib aytganda, qadimiy Xorazm davlati poytaxti bo‘lgan Tuproqqa’la, o‘sha davrdagi Janubiy Orol bo‘yindagi eng yirik madaniy markazlarning biri hisoblangan. Bundan ikki ming yil oldin Janubiy Orol bo‘yi ob-havosi, hayvonat va o‘simplik dunyosi hozirga nisbatan ancha farq qilgan. Tuproqqa’la joylashuvi, shahar bo‘y tiklagan atrof-muhitning tozaligiga, yerning tuzilishi, maydoning aniqligi va qurilish materiallariga boyligi va boshqa vaziyatlarni hisobga olingan holda qurilgan. Qo‘li gul hunarmandlar tomonidan Tuproqqa’laning qurilishi o‘sha davrdagi asov Amudaryoning mavsumlik harakatiga ham uzviy bog‘liq bo‘lgan. Agar Amudaryo o‘z quyar oqimini o‘zgartirgan holatda ham shahar o‘rni xavfsiz yerda joylashgan.

Tuproqqa’la o‘sha davrdagi harbiy arxitektura yutuqlari namunasida qurilgan, ikki qator mudofaa devori bilan himoyalangan, qa’la devori sirtida xandak qozilgan. Bu esa shahar aholisiga tashqi dushmanidan himoyalananish imkonini bergan. Qa’laga kirish, ung betanish odamlar uchun qiyin bo‘lgan. Sababi darvoza oldida labirintli qurilish qurilgan. Bu o‘z nabatida dushman xavfi tug‘ilganda mudofaa bo‘lib xizmat qilgan. Shahar tadqiq etilganda poytaxtga tegishli belgilarning barchasi bo‘lgan.

Tuproqqa’la Qoraqalpog‘iston hududidagi yirik va taniqli arxeologik yodgorliklarning biridir. Biz yoshlар ajdodlarimizdan meroс bo‘lgan milliy va madaniy ob‘ektlarni teran o‘rganishimiz, ularni o‘z holida saqlab qolib, keyingi avlodga yetkarib berishimiz lozim. Bu bizlarning tarix oldida ham, kelajak-

aylodlar oldida ham muhim ahamiyatga ega vazifalarning biri. Har birimiz ótmishimizga bir nazar solar ekanmiz, biz tarixda qanday Ulug' shaxslarning farzandlari va davomchilari ekanligimizdi hech qachon unutmasligimiz zarur.

ADABIYOTLAR TIZIMI:

1. Sh.M.Mirziyoyev. «Buyuk kelajagimizni mard va oljanov xalqimiz bilan birga quramiz» - Tashkent «Uzbekiston», 2017. 486-bet.
2. Mámbetullaev M., Turebekov M., Yusupov O. «Qaraqalpaqstan tariyxı» - Nókis «Qaraqalpaqstan» 2010. 274-bet.
3. Xojaniyazov G., Hákiminiyazov J. «Qaraqalpaqstanniń ájayıp jeti esteligi» - Nókis «Bilim» 2004. 96-bet.
4. «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» - Tashkent «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilimiý nashriyoti» 2000-2005. 23469-bet.
5. Sobirov Q. «Xorazmnинг qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari» - Tashkent «Fan» 2009. 195-bet.
6. Biyimbetov, J. K. (2021). Information Society Development Trends: Philosophical Analysis of Basic Concepts. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies.-America*, 2770-0003.
7. Kilishbaevich, B. J. (2022, December). Philosophical characteristics of information security and analysis of human problems in the 21st century. In *E Conference Zone* (pp. 1-3).
8. Kilishbaevich, B. J. (2022). Problems of protection against threats affecting human consciousness in the processes of information civilization. *Conferencea*, 1-3.
9. Biyimbetov, J. (2021). Philosophical analysis of the problem of information psychological security. *Адам әлемі*, 88(2), 3-9.
10. Biyimbetov, J. K. (2021). Political, economic, cultural and information development of the world in the process of globalization. *Science and education in Karakalpakstan. Karakalpak State University name after Berdakh-Hukyc*, 91-92.
11. Biyimbetov, J. K. (2022). The problem of protecting people and society from information psychological threats. In *Military science development topical issues» international scientific and theoretical conference materials collection. Kazakstan.-Almaty* (pp. 30-35).
12. Biyimbetov, J. K. (2022). Information wars as a socio-philosophical problem. *Science and education in Karakalpakstan. Karakalpak State University name after Berdakh-Hukyc*, 281-283.

13. Biyimbetov, J. K. (2020). Ismaylova GJ Insaniyattıń jańa civilizaciyalıq rawajlanıwında informaciyalıq ırıslardıń insan ruwxıylığına tásiri. *Global science and innovations*, 2-4.
14. Biyimbetov, J. K. Philosophical and methodological analysis of the concepts of information and information society. *Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар» атамасыдаги Республика*, 7-8.
15. Biyimbetov, J. K. (2020). Jámiyettiń rawajlanıwında informaciyaǵa bolǵan talap hám informaciya mádeniyatı. *Мир науки и духовной культуры в условиях глобализации и инновации (Сборник научных статей)» республика илмий-назарий конференцияси. Ўзбекистон*.:–Нукус, 175-177.
16. Biyimbetov, J. K. (2020). Information security as an object of social philosophy. *Science and education in Karakalpakstan. Karakalpak State University name after Berdakh–Нукус*, 194-196.
17. Biyimbetov, J. K. (2020). Socio-philosophical analysis of the concept of information society. *Science and education in Karakalpakstan. Karakalpak State University name after Berdakh–Нукус*, 244-246.
18. BT, B. J. A., Joldasbaev, O. E., & Jamalov, N. Y. (2022). İnsan turmısında mádeniyattiń roli. *Эжинияз номидаги Нукус давлат педагогика институтининг Фан ва жамият журнали*.–Нукус: НДПИ, 50-51.
19. Kilishbayevich, B. J. (2023). Philosophical analysis of manipulation and information security problems. *Sustainability of education, socio-economic science theory*, 1(6), 143-146.
20. Biyimbetov, J. K. (2022). Development of society in information and communication processes. *Замонавий фан, жамият ва таълим: долзарб масалалар, ютуқлар ва инновациялар*, 88.
21. Biyimbetov, J. K. (2020). Қәўипсизликти тәмийнлеў мәселелериниң жәмийет турмысындағы әхмийети. *Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг Ахборотномаси*, 174.
22. Biyimbetov, J. K. (2019). Информация ҳәм информациялық қәўипсизликтиң философиялық анализи. *Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг Ахборотномаси*, 83.
23. Perizat, T. (2022). Ecology of the Bukhara Deer in Our Country (Distribution and Origin). *Research Journal of Applied Medical Sciences*, 25.
24. No'kisbaeva, T. P. (2021). Prospects For the Development of Ecological Tourism in Uzbekistan. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 2, 144-146.
25. Perizat, T. (2021). Global ecological problems: Essence and possible solutions. *International Journal of Academic Multidisciplinary Research (IJAMR)*.

26. Tlepbergenova, P. (2022). Ecology of education as part of the ecology of culture. *Uzbek scholar journal*.
27. Tlepbergenova, P. The modern problem of technogen pollution. *Materials of the republican*.